

# Ona tili

## I qism

2



nonda  
edutainment

S.D.Kuranov

# Ona tili

## 2-sinf

### I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limgan rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik  
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023

## Tovushlar va harflar

Bobojon, davlat  
o'zi nima?



Bolam, qara, dunyo xaritasiga e'tibor qil.  
Unda davlatimiz O'zbekiston boshqa yuzlab  
davlatlar ichida ajralib turibdi. Davlat, eng  
avvalo, o'z maydoniga ega bo'lishi kerak.  
Davlatning o'z aholisi, hamma birdek amal  
qiladigan qonunlari bo'ladi. Eng muhimi,  
davlat mustaqil bo'ladi.



Davlat ham bizning  
oilaga o'xshar ekan.  
Faqat u oilamizdan  
million marta kattaroq!

- 
1. Davlatning yana qanday belgilarini bilasiz?
  2. Davlatning o'z tili va alifbosi ham bo'lishi kerakmi?
  3. O'zbek tilida nechta tovush va harf bor?



### E'tibor bilan o'qing.

Biz – odamlar atrofimizdagi turli xil tovushlarni eshitamiz:



**1-mashq.** Rasmlarga e'tibor bering. Qavslarni ochib, gaplarni to'g'rilib o'qing va ko'chiring.

1

Kuchli shamol ko'tarilib, dengiz to'lqinlari (shovullamoq) boshladи.



2

Mushukcha (miyovlamoq) yugurib daraxt tepasiga chiqib oldi.



3

Cho'ponning bo'ribosar iti tuni bilan (vovullamoq) chiqdi.



**2-mashq.** Rasmlarga qarang. Ular asosida bir nechta gap tuzing.





Odamlar gapirganda hosil bo'ladigan tovushlar tabiatdagi boshqa tovushlardan farq qiladimi?



### Qoidani tushunib oling.

Faqat odamlarga tovushlar yordamida so'zlar, gaplar tuza oladi va o'zaro suhbatlashadi. Odamlar so'zlashganda talaffuz qiladigan tovushlar *nutq tovushlari* deyiladi.



### 3-mashq. Matnni o'qing. Savollarga javob bering. Matnni ko'chiring.

Hamma hovlining o'rtafiga yig'ilgan. Ayollar sopi uzun kapgir bilan galmagal qozonni kavlashyapti. Bolalar qiy-chuvlashib o'ynashyapti. Munisa xola esa childirmani baka-bum qilib chalgancha qo'shiq kuylamoqda.

1. Matnda qaysi taomning tayyorlanish jarayoni tasvirlangan?
2. Bolalar nima qilishyapti?
3. Kattalar nima bilan band?



### Atrofingizda eshitilayotgan tovushlar ishtirokida 3 ta gap tuzing.



- 1.** O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?  
Uning nomini ayting va yozing.
- 2.** Poytaxtimiz haqida so'z ketganda ko'z oldingizga nimalar keladi?



**Qoidani tushunib oling.**

Tovushlar yozuvda *harflar* bilan ifodalanadi.



**4-mashq.** Tovushlarni harflar bilan ifodalashga harakat qiling.

**1**



**2**



**3**



**4**



## Mundarija:

<b>1-mavzu.</b>	<b>O'zbekiston – mustaqil davlat</b>	
	Tovushlar va harflar .....	4
<b>2-mavzu.</b>	<b>Mehmondo'st o'zbek xalqi</b>	
	Unli tovushlar va harflar.....	16-17
<b>3-mavzu.</b>	<b>Samarqand – go'zal shahar</b>	
	Undosh tovushlar va harflar.....	30-31
<b>4-mavzu.</b>	<b>Ulug' allomalar yurti</b>	
	Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar.....	46
<b>5-mavzu.</b>	<b>Bola odobi bilan aziz</b>	
	J, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi .....	60
<b>6-mavzu.</b>	<b>Mening mahallam</b>	
	Harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar ....	76